

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MIRZALIYEVA DILORAM TALIPJANOVNA

**QUR’ONI KARIM – “JOHILIYA” VA ILK ISLOM DAVRIGA OID
TARIXIY MANBA**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Historical Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Mirzaliyeva Diloram Talipjanovna

Qur’oni karim – “Johiliya” va ilk islom davriga oid tarixiy manba3

Mirzalieva Diloram Talipdjanovna

The Qur`an al-kareem – a historcal source recounting the period of “Jahiliya” and
early Islam21

Мирзалиева Дилорам Талипжановна

Коран - исторический источник, относящийся к эпохе «Джахилия» и раннего
исламского периода39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ44

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MIRZALIYEVA DILORAM TALIPJANOVNA

**QUR’ONI KARIM – “JOHILIYA” VA ILK ISLOM DAVRIGA OID
TARIXIY MANBA**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.1.PhD/Tar1369 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iiu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hasanov Ahadjon Ahmadjonovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muhammadsiddiqov Muhammadolim

Muhammadroziq o'g'li

siyosiy fanlar doktori, professor

Muratov Abdishukurjon Abdikadirovich

islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil ___ sentyabr soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (155 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ___ avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil 22-avgustdagi 05-raqamli reyestr bayonnomasi)

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, tarix fanlari doktori,
professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filologiya fanlari
doktori, professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fani tarixida Qur'oni karim musulmonlarning diniy-ma'rifiy, ilmiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayoti qonun-qoidalarini tartibga solib turishi bilan bir qatorda, qadimgi xalqlar haqidagi tarixiy ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi nuqtayi nazaridan ham qimmatli ahamiyat kasb etadi. Xususan, Qur'onda: "choh egalari" (أصحاب الأخدود), "sayl al-arim" (سبل العرم), "fil egalari" (أصحاب الفيل), "tubba' qavmi" (قوم تبع) hamda "Badr" (البدر), "Uhud" (الأحد) va "Xandaq" (الخنق) kabi janglar haqidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularni o'rganish orqali "johiliya" (الجاهلية) va ilk islom davriga oid tarixiy voqealarni to'g'ri anglash va uning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish mumkin.

Dunyodagi islomshunoslik xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarida Qur'on va hadislar diniy ta'limot asosi bo'lishi bilan bir qatorda, tarixiy manba sifatida ham o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda: islomdan avvalgi johiliyat tarixi (الجاهلية), Qur'oni karimning nozil bo'lishi, islom dinining vujudga kelishi, uning boshqa hududlarga yoyilishi (فتوح البلدان), Qur'oni karimda keltirilgan payg'ambarlar hamda qavmlar tarixiga oid ma'lumotlar asosiy o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda Qur'oni karimdagi "johiliya" va ilk islom davriga oid voqealarni jahon olimlari tadqiqotlarining xulosalari bilan qiyosiy, tahliliy jihatdan o'rganish johiliya davri xususiyatlari, ilk islom tarixidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar islom tarixi, madaniyati, sivilizatsiyasi hamda uning asosi bo'lgan Qur'oni karim mavzularini tadqiq etishga keng imkoniyat yaratdi. Natijada, "Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir", "Qur'on mavzularining ma'naviy-tarixiy ahamiyati", "Qur'on so'z va iboralari" kabi kitoblar yozildi, Imom Moturidiyning "Ta'viloti Qur'on" tafsiri o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Ushbu manbalar Qur'oni karimdagi tarixiy voqealarning o'rganilishiga asos bo'lmoqda. Shu bois, Qur'oni karimdagi "johiliya" va ilk islom davriga oid tarixiy voqealarni ilmiy tahlil qilgan holda tadqiqot olib borish sohadagi izlanishlarning izchil davomi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2909-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qur’oni karim mavzulari, xususan, johiliya va ilk islom tarixiga oid ilmiy ishlar tarixiy nuqtayi nazardan 2 guruh doirasida: o‘rta asrlarda arab tilida ijod qilgan olimlar hamda zamonaviy arab, turk, yevropa, rus hamda o‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

O‘rta asrlarda arab tilida ijod qilgan mualliflardan: Ibn Ishoq (vaf. 153/770 y.), Ibn Habib (vaf. 192/808 y.), Ibn Hishom (vaf. 218/833 y.), Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/923 y.), Ahmad Ansoriy Qurtubiy (vaf. 463/1071 y.), Mahmud Zamaxshariy (vaf. 538/1144 y.), Faxriddin Roziy (vaf. 605/1209 y.), Ibn Kalbiy (vaf. 633/1236 y.), Abulbarakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafi (vaf. 709/1310 y.), Isfahoniy (vaf. 749/1349 y.), Ibn Kasir Damashqiy (vaf. 774/1373 y.), Muhammad Abdulqodir (vaf. 775/1374 y.), Ibn Xaldun (vaf. 808/1406 y.) hamda Jaloliddin Suyutiy (vaf. 910/1505 y.) asarlarini zikr etish mumkin¹. Lekin bu manbalardagi ba’zi tarixiy ma’lumotlarga isroiliyot hikoyalari qo‘shilishi natijasida, voqealar rivoyat tusini olganini ta’kidlash lozim.

Zamonaviy arab tadqiqotchilaridan: Umar Fuvvah, Muhammad Bakr Ismoil, Abdulaziz Solim, Muhammad Mabruk Nofe’, Ahmad Husayn Sharafuddin, Muhammad Bayyumi Mehron, Javod Ali, Vahba az-Zuhayliy hamda Shavqiy Abu Xalilning tadqiqotlarida Qur’oni karimda kelgan “tubba’ qavmi” (قوم تبع), “fil egalari” (أصحاب الفيل), “choh egalari” (أصحاب الأخدود) va “sayl al-arim” (سبل العرم) voqealari musnad yozuvlariga tayanib ishlangan². Biroq, mualliflarning kitoblarida qahtoniylar an’anasidagi kabi to‘qimalar mavjud hamda ularda haqiqat va afsonalar ajratilmagan.

Turk mualliflari – Ahmad Lutfiy Qozonchi va Usmon Keski o‘g‘li asarlarida ham voqealar tarixi keng yoritilmagani, “Fil egalari” (أصحاب الفيل) voqeasining sodir bo‘lgan yili va u kim tomonidan uyushtirilgani haqidagi fikrlari tahlil talab ekani ma’lum bo‘ldi³.

¹ ابن اسحاق. السيرة. دمشق. 1976. – 640. ابن الحبيب. كتاب المنمك. حيدر اباد. 1964. 420ص. ابن هشام. السيرة النبوية. ج 1,2. بيروت 1997. 344ص. ابو جعفر محمد ابن جرير الطبري. تاريخ الطبري. ج 1,2. بيروت 1997. 480ص. ابو جعفر محمد ابن جرير الطبري. تفسير الطبري. ج 11,22. بيروت 1998. 670ص. عبدالله محمد ابن احمد الانصارى القرطبي. الجامع لاحكام القرآن. ج-10,13,14,15,16,19,20. بيروت. 1996. 296ص. محمود الزمخشري. تفسير الكشاف. – بيروت. 1143. – 620 ص. افخر الدين الراضى. التفسير الكبير المفاتيح الغائب. ج 31,32. بيروت 1993. 296ص. ابن الاسير. كتاب الكامل في التاريخ. ج 1,6. القاهرة. 1929,1930. 396 ص. ابن الكلبي. كتاب الاصلنام. القاهرة 1965. 344ص. ابن كثير. تفسير ابن كثير. ج 3,4,8. بيروت 1997. 592ص. ابن كثير. البداية و النهاية. ج 1,2. بيروت 1998. 292ص. امام اب البركات عبد الله ابن احمد ابن محمود النسفي. تفسير النسفي. – بيروت. 1998. 388ص. الاسفحاني. دلائل النبوة. – حيدر اباد. 1950. 412ص. محمد عبد القادر. تاريخ اليمن القديم. ل. بيروت 1997. – 540 ص. ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. ج 2. – 430 ص. جلال الدين السيوطي. اطلاق في علوم القرآن. ج 1,2. القاهرة. دار الحديث. 2004. – 450 ص.

² عمر فواح. تاريخ الجاهلية. – بيروت. 1997. – 345 ص. محمد بكر اسماعيل. قصص القرآن من ادم عليه السلام الى اصحاب الفيل. دمشق. دار المنار. 1997 – 345 ص. عبد العزيز السالم. تاريخ العرب قبل الاسلام. مصر. – 148 ص. محمد مبروك نافع. تاريخ العرب. عصر ما قبل الاسلام. مصر 1948. 184ص. احمد حسين شراف الدين. اليمن عبر التاريخ. مصر. 1964. – 184 ص. احمد حسين شراف الدين. تاريخ اليمن الثقافي. مصر. 1967. – 240 ص. محمد بيومي مهران. تاريخ العرب القديم. م. اسكندرية 1993. 666ص. جواد على. المفصل في تاريخ العرب قبل الاسلام. ج 1,10. بغداد 2000. 540ص. وهبة الزهيلي. التفسير المنير في العقيدة و الشريعة و المنهج. ج 15, 30, 29. بيروت 1998. 323ص. شوقي ابو حليل. اطلاس القرآن. دمشق. دار الفكر 2001. 334ص

³ Усмон Кески. Сияри Набий. – Анкара, 1995. -150 б; Аҳмад Лутфий. Саодат асри қиссалари, интизор қутилган тонг. – Т.: Шарқ, 2002. -260 б.

Yevropalik olimlardan: F.K.Xitti, J.B.Filbi, M.Kister, F.L.Biston, H.Vissman, O.Delasi, B.Mouri va Ch.Robin, V.M.Vellxauzenlarning⁴ ilmiy izlanishlarida qimmatli, aniq ma'lumotlar mavjudligiga qaramay, ular tanqidiy ruhda, xristianlik e'tiqodi nuqtayi nazaridan yoritilgan holda yozilganini ko'rish mumkin.

Rus tilida ijod qilgan olimlardan akademik M.B.Piotrovskiy va A.G.Lundin mavzuni atroflicha tadqiq etib, o'z asarlarida turli olimlar fikrlarini qiyosiy tahlil qilganlar. Ammo ulardagi ma'lumotlarning chalkashligi yakuniy xulosa chiqarishga to'sqinlik qiladi. A.Ye.Krimskiy, O.G.Bolshakov, G.M.Bauer, Ye.A.Belyayev, N.V.Pigulevskaya, P.A.Gryaznevich va Yu.M.Kobishanov⁵ esa, muammoni umumiy tarixning bir qismi sifatida o'rganganlar.

O'zbekistonlik olim va tadqiqotchilardan – M.A.Usmonov, A.A.Hasanov va R.Q.Obidovning ilmiy ishlarida: “tubba' qavmi” (قوم تبع), “sayl al-arim” (سئل العرم), “choh egalari” (أصحاب الأخدود) va “fil egalari” (أصحاب الفيل) voqealari hamda “Badr” (بدر), “Uhud” (أحد), “Xandaq” (خندق) janglari bo'yicha qisqa ma'lumotlar berilgan⁶. Shuningdek, Qur'oni karimning o'n besh porasi professor M.A.Usmonov rahbarligida o'zbek tiliga izohlari bilan tarjima qilinib, ilk islom davriga oid mavzular tarkibida umumiy ma'lumotlar sifatida berib o'tilgan.

⁴ Bont-Maury. Le Islamisme et le Christianisme en Afrique. – Paris, 1906. – P. 96.; O'Leary Delacy. Arabia before Muhammad. – London: New York, 1927. -124 p; Wellhausen J. Reste arabischen Heidentums. – Berlin, 1929. -356 p; Philby J.B. Arabian Highlands. – New York, 1952. -94 p; Beeston A. Notes on the Murayghan inscription. – BSO (A)S., 1954. – P. 56; Hitti P.K. op.cit. – P. 61; Wissman H. Himyar Ancient History. – Le Museon, 1964. -143 p. Kister M. The Campaign of Huluban. A new Lihton the Expedition of Abraha. – Le Museon, 1965. -224 p; ; O'sha muallif: Some Reports Concerning Mecca from Jahiliya to Islam. – JESHO, 1972. -98 p; Robin Ch. Le calendrier Himyarite: Nouvelles sugestons. – Proceedings of the Semnar for Arabian Studies. Vol. 11. L., 1981. -124 p.

⁵ Крымский А.Е. Старинная история Южной Аравии от древневавилонских времен до подчинения страны пророку Мухаммаду. Древности восточные. Т.IV. – М., 1913. -69 с; Лундин А.Г. Южная Аравия в VI в. – Палестинский сборник. 8, 71. 1961. – С. 83; ; O'sha muallif: Южноарабская историческая надпись VI в.н.э. из Мариба. Эпиграфика Востока IX. 1954. -256 с; Беляев Е.А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. – М.: Наука, 1966. -280 с; Пигулевская Н.В. Ближний Восток, Византия, Славяне. – Л., 1976. -240 с; ; O'sha muallif: Византия на путях в Индию из истории торговли Византии с Востоком в IV-VI вв. – М., 1951. -248 с; Арабы у границ Византии и Ирана в IV-VI вв. – М–Л.: Наука, 1964. -336 с; Большаков О.Г. История Халифата. Ислам в Аравии 570-633 гг. Т.I. – М.: Наука, 1989. -314 с; Бауэр Г.М. Некоторые проблемы эпонимата в древней Южной Аравии. Вестник древней истории. №2. – М., 1967 -86 с; ; O'sha muallif: О месте Южной Аравии в морской торговле. 2 половина I тысячелетия до н.э. Материалы по этнографии России. Проблемы истории и культурных связей. Вып.2. – М., 1981. -78 с; Сабейские надписи как источник для исследования поземельных отношений в Сабе. Автореф. канд. дисс. – М., 1964. -24 с; Грязневич П.А. Аравия и арабы. Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. Т.12. – М., 1977. -178 с; ; O'sha muallif: Полевые исследования в Йемене в 1970-1971 гг. Древняя Аравия. – М., 1973. -196 с; Ислам: Религия, общество, государство. Ответственный редактор Пиотровский М.Б. Поход слона. – М.: Наука, 1989. -280 с; Лундин А.Г. Южная Аравия в VI веке. – М. –Л., 1961. -246 с; ; O'sha muallif: К возникновению государственной организации в Южной Аравии. Палестинский сборник 17. – Л., 1967. -156 с; Южноарабская историческая надпись VI в.н.э. из Мариба. В.Т.9. – Л., 1954. -245 с; Кобищанов Ю.М. Северо-Восточная Африка в раннесредневековом мире. – М., 1980. -165 с; Пиотровский М.Б. Коранические сказания. – М.: Наука, 1991. -224 с; ; O'sha muallif: Южная Аравия в раннее средневековье. – М.: Наука, 1985. -224 с; Предание о химйаритском царе Асъяде ал-Камиле. – М.: Наука, 1977. -160 с.

⁶ Усмонов М.А. Куръони карим ва жаноби Расулulloхнинг қилган амаллари. – Т.: Мехнат, 1992. -96 б.; ; O'sha muallif: Комментарий к Корану в пер. И.Ю.Крачковского. – Т.: Звезда Востока, 1990-1991, №1-12; ; O'sha muallif: Куръони карим таржимаси. – Т.: Мовароуннахр, 2004; Ҳасанов А.А. Макка ва Мадина тарихи. – Т.: Мехнат, 1992. -86 б.; ; O'sha muallif: Қадимги Арабистон. – Т.: Мовароуннахр, 1994. -94 б.; ; O'sha muallif: Мекка, Мадина и верования арабов накануне возникновения ислама. – Т.: Мехнат, 1994. -84 с.; ; O'sha muallif: Қадимги Арабистон ва илк ислом. Жоҳилия асри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. -256 б; Ҳасанов А.А. Лекции по истории данного ислама. – Т.: Тошкент ислом университети, 2014. -256 б; Ҳасанов А.А. Илк ислом тарихидан маърузалар. Масъул мухаррир Шайх А.А.Мансур. – Т.: Мовароуннахр, 2017. -191 б. Обидов Р. Куръон мавзуларининг маънавий-тарихий аҳамияти. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006. -348 б; O'sha muallif: Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Т.: Мовароуннахр, 2005. -272 б.

H.Karomatov va B.Hasanovning ham Qur'on va Qur'on ilmlariga oid tadqiqotlari mavjud. R.Obidov esa, ularni diniy asosda bayon qilgan hamda voqealarni tarixiy adabiyotlarga tayanib o'rganishga hojat yo'qligini ta'kidlab, ular haqida ilohiy kitoblarda keltirilgan naqliy dalillar bilan kifoyalangan. Ilk islom tarixiga oid ma'lumotlar: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Qur'on va sunnatdagi ilmiy mo'jizalar", Ziyovuddin Rahimning "Payg'ambarlar tarixi", D.Muratov rahbarligidagi mualliflar guruhining "Qur'on so'z va iboralari", A.Hasanovning "Ilk islom tarixidan ma'ruzalar", Q.Zohidovning "Islom tarixi (Xulfoi roshidun davri – 632-661 yillar), Z.Shokirovaning "Ilk islomda sulhparvarlik tamoyillarining tarixiy-qiyosiy tahlili" nomli fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya va avtoreferati hamda A.Abdullayevning "Qur'onshunoslik", "Qur'onshunoslikka oid ilmlar" o'quv qo'llanmalarida keltirilgan⁷. Ammo yuqorida amalga oshirilgan ishlarda tadqiqot mavzusi kompleks tarzda alohida obyekt sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan "Moturidiya ta'limotiga oid aqidaviy matnlarning akademik tarjima va sharhlari hamda ularning elektron kutubxonasini yaratish" (FZ-202002144) mavzuidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "johiliya" (الجاهلية) va ilk islom davri tarixiy hodisalarini Qur'oni karim vositasida ilmiy-nazariy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qur'oni karim mavzularini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishning metodologik ahamiyatini ochib berish;

"Choh egalari" voqeasining ijtimoiy-tarixiy va diniy asoslarini ko'rsatib berish;

Qadimgi Yamandagi Marib to'g'oni bilan bog'liq ilmiy-nazariy yondashuvlarni yoritish;

"Sayl al-arim" hodisasining diniy-ijtimoiy hayotga ta'sirini ochib berish;

"Fil egalari" yurishi davridagi ijtimoiy muhit va unga sabab bo'lgan omillarni aniqlash;

⁷ Bu haqda qarang: Karomatov X. Qur'on va ўzbek adabiyoti. – T.: Fan, 1995. -98 b; Xasanov B. Qur'oni karim sўzlarining arabcha-ўzbekcha kўrsatkichli lug'ati. – T.: F.ʼulom nomiдаgi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1995. – 478 b; Xasanov B. Qur'on ilmlari: Qur'oni karim, kiroat ilmi, tajvid ilmi. – T.: F.ʼulom nomiдаgi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2000. -98 b; Qur'on ilmlari / Shayx Muḥammad Sodik Muḥammad Yusuf. – T.: Nilol-Nashr, 2013. -464 b; Qur'on va sunnatdagi ilmiy mўʼjizalar/ Shayx Muḥammad Sodik Muḥammad Yusuf. – T.: Nilol-Nashr, 2023. -474 b; Obidov P. Qur'on va taʼfsir ilmlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2006. -484 b; Obidov P. Qur'on va taʼfsir ilmlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2009. -564 b; Shokirova Z.N. Ilk islomda sulḥparvarlik tamoyillarining tarixiy- kiyosiy tahlili. – T.: Toshkent islom universiteti, 2012. -26 b; Maxsudov D. Taʼfsir ilmiga kirish (ʼquv kўllanma). – T.: Qadriy Media, 2019. -260 b.; Qur'onshunoslik (ʼquv kўllanma) // tuzuвchi: A.Abdullaev; masʼul muḥarriр: Z.Islomov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2011. -354 b; Qur'onshunoslikka oid ilmlar (matn) // tuzuвchi: A.Abdullaev va boʻshqalar; masʼul muḥarriр: I.Usmonov. – T.: Movarounnaḥr, 2016. -286 b; Islom tarixi (Xulfoi roshidun davri – 632-661 yillar) (ʼquv kўllanma) // tuzuвchi Q.Zohidov — T: Toshkent islom universiteti, 2013. -175 b.; Xasanov A.A. Ilk islom tarixidan maʼruzalar. Masʼul muḥarriр Shayx A.A.Mansur. – T.: Movarounnaḥr, 2017. -191 b.; Qur'on sўz va iboralari (isoxli lug'at) // tuzuвchi: D.Muratov va boʻshqalar; masʼul muḥarriр: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: Movarounnaḥr, 2017. -380 b.

“Fil” voqeasining ilk islom tarixi uchun ahamiyatli jihatlarini ilmiy asoslab berish;

“tubba’ qavmi”ga doir qarashlar va “qahtoniylar an’anasi” adabiyotini qiyoslash;

ilk islom tarixida Vizantiya-Eron munosabatlariga doir ma’lumotlarni aniqlash;

ilk islom davrida yuz bergan yirik janglarning Qur’oni karimda yoritilishini ochib berish hamda olingan ilmiy xulosalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Qur’oni karimdagi “johiliya” va ilk islom tarixiga oid oyatlar tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida “Choh egalari” (أصحاب الأخدود), “sayl al-arim” (سبل العرم), “fil egalari” (أصحاب الفيل), “tubba’ qavmi” (قوم تبع) hamda “Badr” (بدر), “Uhud” (أحد) va “Xandaq” (خندق) kabi janglar haqidagi ma’lumotlar tanlangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusi doirasidagi masalalarni o’rganishda ilmiy bilishning analiz, sintez, deduksiya, induksiya, tarixiylik, tizimlash, qiyoslash va mantiqiy yondashuv hamda boshqa ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Saba’ surasining 15-17 oyatlarida keltirilgan “al-Arim” seli (سبل العرم) Yamandagi Marib to’g’onining buzilishi bilan bog’liq voqea, hanuzgacha saqlanib turgan inshoot qoldiqlari va uning oxirgi buzilishi to’g’risidagi ma’lumotlar orqali Qur’oni karim Marib to’g’oni falokati xususidagi yagona manba bo’lib xizmat qilishi isbotlangan;

Qur’oni karimdagi “Quraysh” va “Fil” surasi tafsirlari qiyosiy tahlili asosida yamanlik habashlarning Makkaga yurishi hamda Ka’bani buzishga bo’lgan harakatiga diniy tus berilgan bo’lsa-da, tarix kitoblari asosida bu harakat makkaliklarning “Baytulloh xodimlari” sifatida tijoratda qo’lga kiritgan maqomini sindirish va unga o’zlari ega chiqishlari uchun uyushtirilgani dalillangan;

VIII-IX asrlarga doir “qahtoniy” adabiyotlardagi “tubba’ qavmi” hukmdori Abukarib As’adning shimoldan Shomgacha, mashriqdan Turkistongacha yetib borib, Samarqandni ham egallagani to’g’risidagi rivoyatlarning haqiqatdan yiroq ekani uning arablarning Movarounnahrda kirib kelishidan avval yashaganiga doir tarixiy dalillar hamda Qur’oni karimning “Qof” surasi 13-14, “Duxon” surasi 36-37 oyatlari tafsirlari asosida ochib berilgan;

“Buruj” surasi 3-9 oyatlaridagi “choh egalari” (أصحاب الأخدود) voqeasi tafsirlari qiyosiy tahlili orqali yahudiy hukmdor Zu Navos tomonidan 523-yil Najronda xristianlar o’ldirilishining diniy sababi mavjudligi bilan birga, Yaman savdosidagi ustunlikni ta’minlash, siyosiy boshqaruvni yahudiylar qo’lida saqlab qolish maqsadida uyushtirilgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qur’oni karimning: “Saba” surasi 15-17, “Qof” surasi 13-14, “Duxon” surasi 36-37, “Buruj” surasi 3-9, “Fil” surasi “Johiliya” davri va “Anfol” surasi 5-7, “Oli Imron” surasi 166-167, 121-122 oyatlari ilk islom davriga oid tarixiy mavzularni xolis ochib berishda muhim manba bo’lib xizmat qilishi aniqlangan;

ilk bor musulmonlar o’zlarini mudofaa qilishlariga izn beruvchi “Haj” surasi

39-oyati nozil bo'lganidan so'ng Muhammad (s.a.v.) Madina davrida islom dini va yangi shakllangan ummatni himoya qilish maqsadida, 10 yil davomida 30 dan ortiq janglarda ishtirok etishiga qaramay, Badr, Uhud va Xandaq g'azotlari ilk islom tarixidagi yirik janglar ekani va o'tmishda katta iz qoldirgani ochib berilgan;

tafsir va tarix kitoblaridagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida, Muhammad (s.a.v.)ning tug'ilish yiliga ishora qilgan "Fil" surasidagi "fil egalari" (أصحاب الفيل) yurishiga hukmdorligi 548-yilda tugagan yamanlik Abraha emas, balki 570-yilda uning kichik o'g'li Masruq boshchilik qilgani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy ishda olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi Qur'oni karim qadimgi va ilk islomga oid manba sifatida olinib, u ilk islom davri bilan bog'liq tadqiqot, monografiya, tezis va maqolalarda keng istifoda etilgani, shuningdek, jahon islomshunosligi va manbashunosligida erishilgan so'nggi yutuq, ma'lumotlarni tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy uslubdan foydalanilgani, xulosalarni ilgari surishda nodir qo'lyozma manbalar matniga tayanilgani, Qur'oni karim oyatlari bilan asoslanib, olingan ilmiy natijalar tahlil va talqin qilingani, amaliyotga joriy qilingani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qur'oni karim – "johiliya" va ilk islom tarixiga oid tarixiy manba ekani borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid yangi ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosa va tavsiyalaridan oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Islomshunoslik", "Islom tarixi", "Manbashunoslik" hamda "Tarixnavislik" kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitish, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Qur'oni karim – "johiliya" va ilk islom tarixiga oid tarixiy manba" mavzuida olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

"Saba" surasining 15-17 oyatlarida keltirilgan "al-Arim" seli (سبل العرم) Yamandagi Marib to'g'onining buzilishi bilan bog'liq voqea, hanuzgacha saqlanib turgan inshoot qoldiqlari va uning oxirgi buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar orqali Qur'oni karim Marib to'g'oni falokati xususidagi yagona manba bo'lib xizmat qilgani isbotlangani xususidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida yozilgan "Islom tarixi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 9-iyuldagi 02-02/2096-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu natijalarning qo'llanilishi islom dinining asosiy manbasi – Qur'oni karim suralarining sababi nuzuli, tarixi va uning ilmlarini o'rganish hamda undagi umumbashariy qadriyatlar, yoshlarni to'g'ri e'tiqod, ajdodlar ma'naviy merosi va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qur'oni karimdagi "Quraysh" va "Fil" surasi tafsirlari qiyosiy tahlili asosida yamanlik habashlarning Makkaga yurishi hamda Ka'bani buzishga bo'lgan harakatiga diniy tus berilgan bo'lsa-da, tarix kitoblarida makkaliklarning "Baytulloh xodimlari" sifatida tijoratda qo'lga kiritgan maqomini sindirib, unga o'zlari ega

chiqish uchun uyushtirilgani dalillangani xususidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan “Qur’onshunoslik” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 24-iyundagi 01-08/58-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda habashlarning Makkaga yurishiga diniy qarashlarning turlichaligi emas, balki iqtisodiy ustunlikni qo’lga kiritishga intilish sabab bo’lgani haqidagi tushunchalarning shakllanishiga erishilgan;

VIII-IX asrlarga doir “qahtoniylar” adabiyotlaridagi “tubba’ qavmi” hukmdori Abukarib As’adning shimoldan Shomgacha, mashriqdan Turkistongacha yetib borib, Samarqandni ham egallagani to’g’risidagi rivoyatlarning haqiqatdan yiroq ekani uning arablarning Movarounnahrda kirib kelishidan avval yashaganiga doir tarixiy faktlar hamda Qur’oni karimdagilarning “Qof” surasi 13-14, “Duxon” surasi 36-37 oyatlar tafsirlari asosida ochib berilgani xususidagi ilmiy xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida tayyorlangan “Ta’vilot al-Qur’on” (30-juz) nomli kitobda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 24-iyundagi 02/258-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bu o’quvchilarda islom tarixini o’rganishda “qahtoniylar” adabiyotlarining o’rni va uning o’ziga xosligi borasidagi tushunchalarning shakllanishiga xizmat qilgan;

“Buruji” surasi 3-9 oyatlaridagi “choh egalari” (أصحاب الأخدود) voqeasi tafsirlari qiyosiy tahlili orqali yahudiy hukmdor Zu Navos tomonidan 523-yil Najronda xristianlar o’ldirilishining diniy sababi mavjudligi bilan birga, Yaman savdosidagi ustunlikni ta’minlash, siyosiy boshqaruvni yahudiylar qo’lida saqlab qolish maqsadida uyushtirilgani haqidagi xulosalar O’zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi buyurtmasi bilan tayyorlangan “Islom sivilizatsiyasi” qomusiy lug’atining mazmuniga singdirilgan. (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O’zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2024-yil 27-iyundagi 06-07/158-sonli ma’lumotnomasi). Natijada islom tarixini o’rganishda Qur’oni karimning ahamiyati borasidagi ma’lumotlarning keng xalq ommasiga yetib borishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatlashi. Tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 12 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatlashdan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo’yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan. O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan, 6 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat bo’lib, uning hajmi 150 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o'rganish obyekti, predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qur’oni karimdagi tarixiy ma’lumotlarni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli I-bobining birinchi bandi *“Qur’oni karim mavzularini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishning metodologik ahamiyati”* deb nomlanib, unda Muhammad (s.a.v.) zamonidan beri o'tgan o'n to'rt asr davomida dunyo olimlari tomonidan amalga oshirilgan Qur'on mavzulariga oid tadqiqotlar hamda uning tarjimalari mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Qur'on ilmlari ma'nolarini tushunish va talqin etish bosqichma-bosqich taraqqiy etib, bu sohada Sharqda IX asrdan, G'arbda IX-XII asrlardan beri salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Masalan, III/IX asrda Abu Ubayda Muammar Musannoning (vaf. 209/824 y.) *“Majoz al-Qur'on”* (مجاز القرآن), Horis ibn Asad Muhosibiyning (vaf. 243/857 y.) Qur'onning ayrim ilmlariga bag'ishlangan *“Fahm al-Qur'on”* (فهم القرآن), Ibn Qutaybaning (vaf. 276/889 y.) *“Mushkul Qur'on”* (مشك القرآن), IV/X asrda Muhammad ibn Xalaf ibn Marzabonning (vaf. 309/921 y.) *“Hoviy fi ulum al-Qur'on”* (حاوى في علوم القرآن), Muhammad ibn Jarir Tabariyning *“Jome' al-bayon fi ulum al-Qur'on”* (جامع البيان في علوم القرآن), Muhammad ibn Qosim Anboriy (vaf. 328/939 y.), Abu Bakr Sijistoniyning (vaf. 330/944 y.) *“G'arib al-Qur'on”* (غريب القرآن), Abu Bakr Boqilloniyning (vaf. 403/1012 y.) *“I'joz al-Qur'on”* (اعجاز القرآن), Ibn Habib Naysaburiyning (vaf. 406/1015 y.) *“Tanbih ala fazl ulum al-Qur'on”* (تنبيه على فضل القرآن), Ali ibn Ibrohim Sa'iyd Havfiyning (vaf. 430/1039 y.) *“I'rob al-Qur'on”* (اعراب القرآن) asarlari alohida sohalar bo'yicha dastlabki qadam bo'ldi⁸.

XIX-XX asrlarda g'arbda: E.U.Leyn (1801-1876 y.), I.Goldsiyer (1850-1921 y.), X.S.Xyurgronye (1857-1936 y.), A.Lammens (1862-1937 y.), A.Masse (1886-1969 y.), G.E.Fon Gryunebaum (1909-1972 y.), Rossiyada: G.S.Sablukov, Ch.E.Tornau, V.R.Rozen, V.A.Jukovskiy, A.S.Krimskiy, V.V.Bartold, A.E.Shmidt, I.Yu.Krachkovskiy, N.V.Pigulevskaya, A.G.Lundin, M.B.Piotrovskiy, Ye.A.Rezvan, S.M.Prozorov singari qator yirik islomshunos tarixchi olimlar yetishib chiqqan. Ular Qur'on va undagi tarixiy voqealarni qisman o'rganganlar.

Hozirda Qur'on qissalari va undagi voqealar tarixini o'rganishda arab olimlaridan: Shavqiy Abu Xalil, Muhammad Mabruk Nofe', Abdulaziz Solim, Muhammad Bayumiy Mehron, Ahmad Husayn Sharofuddin, Ali Ibrohim Hasan, Ahmad Sharif, Muhammad Amin ash-Shofe'iy kabilar mashhur bo'lib, ularning asarlarida qisqa bo'lsa-da, Odam (a.s.)dan Muhammad (s.a.v.) davrigacha bo'lgan

⁸ Qarang: Абдуллаев А. Қуръоншунослик. – Т.: Тошкент ислом университети, 2011. – Б. 9–11.

voqea-hodisalar tarixiy xronologik uslubda yoritilgan.

Qur'oni karim o'zbek tilida ham o'rganib kelinmoqda. Ulardan: Shamsiddin Boboxon, Alouddin Mansur, Abdulaziz Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan imom A'zam mazhabi – hanafiy ta'limoti bo'yicha izohlangan mukammal tarjima nashri chop etilgan⁹. Shu bilan birga, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abduqahhor Shoshiy, Ziyovuddin Rahim, D.Muratov, A.Hasanov, Z.Obidov, D.Maxsudov, Q.Zohidov, A.Abdullayevning kitoblari bosmadan chiqqani bu borada Vatanimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamidan dalolat beradi.

Bobning *“Choh egalari” voqeasining ijtimoiy-tarixiy va diniy asoslari* deb nomlangan ikkinchi bandida Qur'oni karimdagi “Buruj” surasi 3-9-oyatlarida o'z ifodasini topgan “ashab al-uxdud” (أصحاب الأخدود)¹⁰ (“choh egalari”) haqidagi voqea Arabiston yarimoroli qabilalari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-madaniy munosabatlar to'g'risida ma'lumotlar berishi, hodisani uyushtirgan shaxs qaysi din vakili bo'lgani, qatl etilgan kishilar soni hamda voqeaning sodir bo'lish sabab va oqibatlari tahlil etilib, mavhum jihatlariga aniqlik kiritilgan.

Yahudiy diniga e'tiqod qilgan, oxirgi Himyar podshohi Zu Navos aholisining aksariyati xristianlardan iborat bo'lgan Najron shahriga qirg'inbarot keltirgani haqidagi ma'lumot yahudiy va xristian manbalarida ham keltirilgan. Tadqiqot ishida Zu Navos tomonidan 523-yilda uyushtirilgan va Qur'oni karimda mushriklarga saboq beruvchi hodisa sifatida zikr etilgan “choh egalari” voqeasi tarixiy haqiqat, deb topilgan. Tarixiy adabiyotlarda bu voqeaga, ko'pincha, yahudiy-xristian nizosi tusi berilgan bo'lsa-da, aslida, bu siyosiy ahamiyatga ham molik, ya'ni Vizantiya va xristian Habashistonining Yamanga nisbatan kun sayin kuchayib borayotgan tazyiqiga qarshi ko'rilgan chora ekani aniqlangan.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, “choh egalari” voqeasida 12 ming, 20 ming va 70 ming kishi o'ldirilgan¹¹. Aslida, Najronda qatl etilganlar adadi borasida mubolag'a qilingan, chunki u yerda bu kabi ko'p sonli aholi yashamagan.

Zu Navos najronlik nasroniylarni azoblagani, qulay imkoniyatni kutib turgan Vizantiya imperatorligi uchun bahona bo'lib, aslida, Vizantiya va Eron Yaman uchun kurash olib borayotgan edi. Bunday vaziyatdan Vizantiya yaxshi foydalanib, bir zumda Yamanni o'ziga tobe qilib olgan.

Tadqiqotning *“Qadimgi Yamandagi Marib to'g'oni bilan bog'liq ilmiy-nazariy yondashuvlar”* nomli uchinchi bandida “Saba”¹² surasining 15-17 oyatlarida Allohning amriga itoatsizlik qilgan Quraysh qavmi uchun ibrat tarzida kelgan Marib to'g'onining buzilishi bilan bog'liq voqeaning ilmiy, tarixiy tahlili, hodisaga sabab bo'lgan omillar hamda tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalari ochib berilgan.

⁹ Qur'oni karim ma'no-larining tarjimasi // Tarjima muallifi Abdulaziz Mansurov. – T.: Toshkent islom universiteti, 2001. – B. 617; Qur'oni karim ma'no-larining tarjimasi // Tarjima muallifi Shayx Muḥammad Sodik Muḥammad Юсуф. – T: Шарк, 2009. – B. 618.

¹⁰ 523 yil Yamanning Najron shahrida sodir bo'lgan tarixiy voqeaning nomi.

¹¹ وهبة الزهيلي. التفسير المنير في العقيدة والشريعة والمنهج. ج. 29. – بيروت. 1998. – ص. 153.

¹² Saba' – Yaman diyoridagi qadimiy davlat nomi. Unda Bilqis ismli malika hukmdor bo'lgan. Bu surada mazkur Saba' qabilasining noshukrliklari sababli noz-ne'matlardan mahrum bo'lgani Dovud va Sulaymon payg'ambar qissalari, haq bilan botilning o'zaro kurashi, ezgulikka berilajak ajru-savoblar, yovuzlikka atalgan uqubat va jazolar to'g'risida oyatlar bayon etilgan.

Yaman aholisi bundan 2500 yil oldin to'g'onlar qurib, yomg'ir suvlaridan ustalik bilan foydalanib kelgan. Qadimgi Yamanda 100 dan ortiq to'g'on mavjud bo'lib, ularning ichida eng mashhuri Marib bo'lgan. Uning balandligi -15, kengligi - 80 metrni tashkil qilib, uzunligi 1000 metrga cho'zilgan¹³ hamda ustida yog'och va temirlardan yasalgan ko'tarma ko'prik bo'lgan. Inshootning bir tomonida Rub al-Xali sahrosi joylashganiga qaramay, u yer gullab-yashnab, mevalarga boy bo'lgan. Bu haqda Marib tomonga karvon bilan savdo ishlarida o'tganlar uni maqtaganlari, keyinchalik esa, savdogarlar uni faqat buzilganini aytganlari haqidagi ma'lumotlar guvohlik beradi.

To'g'on mil.avv. 615-yildan boshqarila boshlangan. Bu ulkan majmua yillar mobaynida qurilib, qayta ta'mirlab turilgan. To'g'on bir hukmdor zamoni, bir asrda bunyod qilingan emas, balki bir necha davrlarda, ko'plab podshohlar boshqaruvida qad rostlagan va ta'mirlab turilgan. Yaman iqtisodida muhim o'rin tutgan Marib to'g'oni hamda sug'orish inshootlarini tartibli saqlab turish qadimgi davlat hokimlarining asosiy vazifalaridan biri sanalgan.

Ulkan Marib to'g'oni sayyoh va tadqiqotchi olimlarda qiziqish uyg'otgan. U boshqa suv omborlaridan o'zining sug'orish vositalarining ko'pligi bilan ajralib turgan. Arab qabilalari Marib to'g'onining dovrug'i va bir nechta foydali funksiyalari hamda uning buzilishi haqidagi voqeani butun Arabiston bo'ylab yoyganlar. Voqea tafsiloti islom arafasida yashagan, har yili qishda Yamanga (Quraysh surasi) karvon uyushtirib turgan avlod uchun yaxshi ma'lum bo'lgan. Marib voqeasining Qur'onda zikr etilishi savdo tufayli maishiy hayoti obod makkaliklarga ularning farovonligi doimiy emasligi, bir lahzada Allohning qahriga uchrashlari mumkinligi xususida ogohlantirish vazifasini o'tagan. Qurayshliklarga 30-35 yil oldin yuz bergan voqeani eslatish kuchli emotsional ta'sir ko'rsatgan.

Dissertatsiyaning «**Sayl arim**» va «**fil egalari**» voqealarining islom tarixida **tutgan o'rni**» nomli ikkinchi bobining birinchi bandi "*Sayl al-arim*" hodisasining diniy-ijtimoiy hayotga ta'siri" deb atalib, unda Qur'oni karim oyatlarida Marib to'g'onining halokati, odatdagidek, odamlar axloqsizligi va takabburliklariga javoban Alloh yuborgan jazo sifatida talqin etilgan. Marib to'g'oni uzoq yillar davomida xalqqa foydasi tegib kelgan. To'g'on bir necha marta mil.av. 115-yil, milodiy 450, 541, 580-yillarda buzilgan. Uning 580-yildagi oxirgi halokatidan so'ng qayta tiklanmagan¹⁴ va hozir Qur'onda tasvirlangan holatida saqlanib kelmoqda. Tuzumlar o'zgarishi yoki hokimiyat kuchsizlanib qolishi natijasida to'g'onning bir necha bor vayron bo'lgani va ta'mirlangani Yaman iqtisodiga juda katta ta'sir ko'rsatgan¹⁵. To'g'onning buzilishiga sabab bo'lgan omillar sifatida: to'g'onni sel olib ketishi; urushlar, uni Alloh tomonidan yuborilgan sichqon teshishi; yer qimirlashini keltirish mumkin¹⁶.

Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, qadimgi dunyoda Buyuk Marib

¹³ Хасанов А.А. Қадимги Арабистон ва илк ислом, жоҳилия асри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 91; Пиотровский М.Б. Южная Аравия в раннее средневековье. – М.: Наука, 1985. – С. 134.

¹⁴ Обидов Р. Қуръон мавзуларининг маънавий-тарихий аҳамияти. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006. – Б. 312; Пиотровский М.Б. Южная Аравия в раннее средневековье. – М.: Наука, 1985. – С. 136.

¹⁵ <https://islom.uz/maqola/1767> (Murojaat sanasi: 28.05.2024)

¹⁶ <http://www.islam-ua.net>. (Murojaat sanasi: 20.04.2020).

to'g'oni yuksak mahorat bilan qurilgan bo'lib, 10-12 tonnalik toshlar yuqoriga ko'tarib qo'yilgan. "Bibliyadagi har narsa haqiqat" kitobining muallifi arxeolog Varner Keller Marib shahridagi to'g'onning manzarasi Qur'onda tasvirlangan holidagidek ekani va bu voqea haqiqatda sodir bo'lganini tasdiqlaydi¹⁷. Toshqin hodisasi daryo qirg'og'idagi aholi boshiga kulfat solgani sababli ular o'z yashash joylarini o'zgartirishga majbur bo'lgan. Tadqiqotda Marib to'g'onining oxirgi buzilishidan keyin, Qur'onda tasvirlanganidek, bebaraka, achchiq, taxir mevali yulg'unzor tarzida saqlanib kelayotgani, uning zamirida yashiringan sir-sinoat hozirgi davrda kuniga minglab sayyohlarni o'ziga rom etayotgani, Maribning Saba' davlati poytaxti darajasidagi maqomi hali-hanuz tarix sahnasidan tushmagani o'z ifodasini topgan. Xulosa qilib aytganda, Qur'on "sayl al-arim" voqeasi bo'yicha ma'lumot qoldirgan yagona tarixiy manba hisoblangan.

Mazkur bobning "*Fil egalari*" yurishi davridagi ijtimoiy muhit va unga sabab bo'lgan omillar"ga bag'ishlangan ikkinchi bandda Qur'onning "Fil" surasi¹⁸da bayon etilgan tarixiy "fil egalari"¹⁹ (أصحاب الفيل) voqeasi 570-yil – Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan yilda ro'y bergani, Qur'onda "Fil" surasi orqali Alloh taolo takabburlik, manmanlik, molparastlik va shuhratparastlikning oqibati halokat ekanidan ogohlantirgani atroflicha yoritib berilgan.

Tafsirlardagi manbalarda yozilishicha, Abraha Sano shahrida 546-yilning oxiri 547-yilning boshlarida al-Qulays²⁰ cherkovini qurdirgan²¹. Kinona qabilasidan bir kishi Qulaysni ifloslaganidan so'ng Abraha makkaliklardan o'ch olish maqsadida katta qo'shin tuzgan hamda uning tarkibida bir nechta bo'ysundirilgan arab qabilalari: Kinda, Mazxij, al-Horis Ibn Ka'b, Has'am va yamanlik badaviylar ishtirok etgan²². Abrahaning Makkaga qarshi yurishida uning qo'shinini Habashistondan kelgan yordamchi askarlar bilan birga, jami oltmish mingga yaqin lashkar va yana o'n uchta fil tashkil qilgani²³ haqida ma'lumotlar bor. O'rta asr arab tarixiy adabiyotida Makkaga qilingan hujum barbod bo'lishining sabablari sifatida fil yurmagan, osmondan qora gala qushlar bostirib kelib, pishgan g'isht uvog'ini tashlab, tosh tekkan joyiga chipqon chiqishi, qo'shin orasida suvchechak, qizamiq tarqalishi va qo'shindagilar badanlarida turli xil o'simtalar paydo bo'lgani keltirilgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, Abraha lashkarining ko'p qismini tashkil qilgan bo'ysundirilgan badaviy arablar Makka haramiga hujum qilishni gunoh deb bilib, undan bosh tortgan. Hujum orqaga surilib, "abobil" qushlari olib kelgan toshlar sababli qo'shin ichida yuqumli kasallik tarqalgan. Ko'p odam o'lib, qolganlari ortga qaytgan. Shu tariqa, Makka "fil egalari" hujumidan qutilib qolgan.

Abrahaning "Fil egalari" yurishini uyushtirishidan asosiy maqsadi turli bahonalarni vaj qilib, Yamanning savdodagi faolligini oshirish, qolaversa, Vizantiya va Eronning asrlar uzra davom etib kelayotgan xalqaro savdo yo'llarida ustunlikka

¹⁷ <https://islom.uz/maqola/1767> (Murojaat sanasi: 28.05.2024)

¹⁸ Surada Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan yilda ro'y bergan tarixiy va ibratli voqea qisqacha bayon etilgan.

¹⁹ 570-yil Yaman hukmdori tomonidan Makka shahridagi Ka'bani buzish maqsadida uyushtirilgan voqea.

²⁰ Yevropa tillarida shu o'zakdan olingan "Kolizey" so'zi katta cherkov ma'nosini anglatadi.

²¹ <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/37507-fil-vo-easi-andaj-sodir-b-lgan-ed> (Murojaat sanasi: 29.05.24)

²² Kister M. Some Reports Concerning Mecca from Jahiliya to Islam. JESHO, 1972. – P. 72.

²³ أبو جعفر محمد ابن جرير الطبري. تاريخ الطبري. ج. 1, 2. بيروت 1997 ص 934

erishish uchun kurashida Vizantiya manfaatiga xizmat qilish bo'lgan.

Uchinchi bandda *“Fil” voqeasining ilk islom tarixi uchun ahamiyatli jihatlarini* yoritib berilgan. 570-yilda Makka shahridagi Ka'bani buzishga qaratilgan “fil egalari” yurishi ilk islom tarixi uchun beqiyos ahamiyat kasb etgan. Chunki yurishdan so'ng Quraysh qabilasining boshqa qavmlar orasidagi obro'-e'tibori yanada kuchaydi, ular “Ahlulloh” (Allohnin do'stlari) deb atalganlar, Quraysh sharaflari “al-ilohi” – “Xudo yorlaqagan qabila” nomini olgan.

Ko'p manbalarda fil voqeasi Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan yili habash podshohi Abraha tomonidan sodir etilgani qayd etilgan. Payg'ambar (s.a.v.)ning tavallud topgan yilini tadqiqotchilar turli sanalar bilan ko'rsatganlar. Jumladan, tadqiqotchi Javod Ali²⁴ Muhammad ibn Jarir Tabariy, ibn Kasir kabi mufasssirlarning fikrlari asosida hamda M.Usmonov, Qur'on ma'nolari tarjimasining mualliflari Abdulaziz Mansur, Sh.Boboxon va rus tadqiqotchisi A.G.Lundinning fikriga ko'ra, voqea milodiy 570-yil Yaman hokimi Abraha tomonidan sodir etilgan hamda Muhammad (s.a.v.) Makkada Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonida “fil egalari” yurishidan 50 kun keyin tavallud topgan²⁵. Kalbiyga ko'ra, “fil egalari” yurishi Muhammad (s.a.v.) tug'ilishidan 23 yil avval, ya'ni 547/548 yillarda ro'y bergan. Ya'ni Muhammad (s.a.v.) 570-yilda tavallud topgan²⁶.

“Fil” voqeasi Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan 570-yilda o'rta asr adabiyotlarida kelganidek, Abraha emas, balki uning o'g'li Masruq tomonidan uyushtirilgan. Chunki Abrahanning hukmdorlik davri 548-yilda tugaganidan so'ng ketma-ket uning ikkita o'g'li: Yaksum (548-567) va Masruq (567-578) Yamanga hokimlik qilishi masalaga aniqlik kiritadi. “Fil egalari” voqeasi Makka ahliga shu qadar kuchli ta'sir etganki, ular bu yilni “Om al-fil” deb ataganlar.

“Qur'oni karimdagi «johiliya» va ilk islom davriga oid ma'lumotlarning ilmiy tahlili” deb nomlangan uchinchi bobning birinchi bandi *“Tubba' qavmi”ga doir qarashlar va “qahtoniylar an'anasi” adabiyotining muqoyasasi* ga bag'ishlangan. Unda “Duxon” surasi 36-37, “Qof” surasi 13-14 oyatlarida keltirilgan “tubba'”lar haqida mufasssir hamda tadqiqotchi olimlarning fikrlari tahlil qilingan.

“Tubba'” Yamandagi ikkinchi Himyar (275-525) hokimlarining nomlarini anglatib, musulmonlar Xalifasi, Rim imperatori kabi unvon bo'lgan²⁷. Tubba'lar haqida adabiyotlarda podshoh, deb talqin etilgan. Qur'onning “Duxon” surasi 36-37 va “Qof” surasi 13-14 oyatlarida kelgan tubba'dan Abukarib As'ad al-Komil (385-415) ismli ikkinchi Himyar davlati podshohi nazarda tutilgan. Uning hukmronlik yillari Janubiy Arabiston tarixida davlat o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishgan davr bo'lib, ayni mashhurligi bois arablarga yaxshi tanish bo'lgan va bu oyatlarda o'z ifodasini topgan.

“Qahtoniylar an'anasi” adabiyotlaridagi tubba'larning O'rta Osiyo, aniqrog'i,

²⁴ جواد علي. المفصل في تاريخ العرب قبل الاسلام. ج 1.10. – بغداد. 2000. – ص. 511-510.

²⁵ Курьони карим маъноларининг таржима ва тафсири/ Таржима ва тафсир муаллифи Мансуров А. – Т: Тошкент ислом университети, 2009. – Б. 601; Курьони карим таржимаси/ Таржима ва изоҳлар муаллифи Бобохонов Ш. – Тошкент, 1991. – Б. 30.

